

## ONLAYN VA OFLAYN TA’LIM MUHITINING SOLISHTIRMA TAHLILI: O’QUVCHILAR BILIMIGA TA’SIRI

Axmedova Paridaxon Poziljonovna

**Annotatsiya:** Ushbu Maqolada onlayn va oflayn ta’lim muhitlarining asosiy xususiyatlari, ularning o’quvchilar bilimiga ko’rsatadigan ta’siri, taqqoslama tahlil orqali ko’rib chiqilgan. Ta’lim samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar, texnologik va psixologik farqlar, gibrildi ta’lim modeli orqali yechim taklif etilgan. Empirik kuzatishlar asosida har ikki muhitning afzallik va kamchiliklari ilmiy yondashuv asosida baholangan.

**Kalit so‘zlar:** Onlayn ta’lim, oflayn ta’lim, bilim sifati, taqqoslama tahlil, pedagogik texnologiyalar, gibrildi ta’lim, o’quv jarayoni, raqamlı savodxonlik.

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ta’lim tizimida ham an’anaviy (oflayn) va raqamli (onlayn) ta’lim shakllari keng rivojlandi. Ayniqsa, pandemiya davridan boshlab onlayn ta’limning keng joriy etilishi o’quv jarayonining texnologik transformatsiyasiga olib keldi. Shu bilan birga, har ikki muhitning afzalliklari va kamchiliklari bor. Ushbu maqolada onlayn va oflayn ta’lim shakllarining o’quvchilar bilimiga ko’rsatadigan ta’siri, ularning samaradorlik darajasi, psixologik va ijtimoiy jihatlari solishtirma tahlil asosida yoritiladi.

Oflayn ta’lim muhiti va uning afzalliklari.

An’anaviy ta’lim shakli o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi bevosita muloqotga, sinfdagi ijtimoiy muhitga va real vaqtli bilim berish jarayoniga asoslanadi. Bu modelda o’qituvchi o’quvchilarning yuz ifodasi, ovoz ohangi va jismoniy holatiga qarab darrov fikr yurita oladi, bilim darajasini real vaqt rejimida baholaydi. O’quvchilar jamoaviy ishlash, liderlik ko’nikmalarini shakllantirish, o’zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Dars jarayoni ko’proq intizomga, an’anaviy pedagogik usullarga va emotsiyonal rag’batlantirishga tayanganligi sababli bu usulda o’quvchining tafakkur va xotira faoliyati ko’proq faollashadi.

Onlayn ta’lim muhiti va uning imkoniyatlari.

Onlayn ta’lim texnologiyalar yordamida masofadan turib ta’lim olish imkonini beradi. Bu modelda darslar video, matn, interaktiv test, virtual laboratoriylar orqali o’tiladi. Onlayn ta’lim imkoniyatlari cheksiz bo’lib, u o’quvchiga o’ziga mos tezlikda, individual rejimda bilim olish imkonini yaratadi. Axborotga tezkor kirish, darslarni qayta ko’rish, multimedia vositalaridan foydalanish orqali darsni ko’rgazmali qilish imkoniyati yuqori. Shuningdek, geografik yoki jismoniy cheklovlargacha ega o’quvchilar uchun bu model dolzarb ahamiyatga ega bo’lib, ta’limda inklyuzivlikni ta’minlaydi.

Solishtirma tahlil.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, oflayn ta’limda o’quvchilarning bilimni o’zlashtirish darajasi barqarorroq, kommunikatsiya ko’nikmalarini yuqoriroq,

psixologik muhit ijobiyroq bo‘ladi. Onlayn ta’limda esa o‘quvchilarning axborot qabul qilish tezligi, mustaqil ishslash ko‘nikmalar, texnologik savodxonlik darajasi oshadi. Biroq onlayn ta’limda intizomni saqlash, o‘zini boshqarish va uzoq vaqt diqqatni jamlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Oflyan ta’lim ijtimoiy moslashuv va guruhda ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirsa, onlayn muhitda bu imkoniyatlar cheklangan bo‘lishi mumkin.

Ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchi shaxsiyati, o‘qituvchi malakasi, darsni tashkil etish usuli va texnik shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Ideal ta’lim modelida onlayn va oflayn elementlarni uyg‘unlashtirish orqali har ikki modelning ijobiy jihatlarini birlashtirish mumkin bo‘ladi. Bu “gibrid ta’lim” deb ataladi va u hozirgi kunda innovatsion yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda.

Tajriba asosida kuzatishlar.

2023-yilda O‘zbekistonning bir qator umumta’lim maktablarida olib borilgan kuzatishlarga ko‘ra, oflayn shaklda o‘qigan o‘quvchilarning test natijalari onlayn guruhga nisbatan 8–12% yuqoriroq bo‘lgan. Shu bilan birga, onlayn guruhdagi o‘quvchilar yangi texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yuqori savodxonlik va mustaqil ishslashda yuqori faollik ko‘rsatgan. Bu esa shuni anglatadiki, ta’lim sifati nafaqat muhitga, balki yondashuv, motivatsiya va qo’llab-quvvatlov tizimiga ham bog‘liqdir.

## XULOSA

Onlayn va oflayn ta’limning har birida o‘ziga xos afzalliklar mavjud bo‘lib, ularning o‘quvchilar bilimiga ta’siri murakkab va ko‘p omilli jarayondir. An’anaviy ta’lim ijtimoiylashtirish, muloqot va hissiy barqarorlikda ustun bo‘lsa, onlayn ta’lim texnologik innovatsiyalar va moslashuvchanlikda samarali hisoblanadi. Ideal yechim – bu har ikki muhitning integratsiyasi, ya’ni kombinatsiyalangan yoki gibrid ta’lim modelidir. Bu model orqali nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning zamonaviy jamiyatga moslashuvi ham ta’milanadi. Kelgusida bu borada pedagoglarni tayyorlash, texnik imkoniyatlarni kengaytirish va raqamli resurslarni boyitish dolzarb vazifadir.

## ADABIYOTLAR:

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(3), 80–97.
2. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning*. John Wiley & Sons.
3. Karimov, I. A. (2006). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.